



 **niPublish**

FEBRUARY ISSUE

2026



+998 (99) 941-05-21
www.spectrumofdevelopment.com

IKKI TILLI MUHITNING BOLA PSIXOLOGIYASIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRLARI

Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti, v.b. dotsent, ps.f.b.f.d. (PhD)

Ergasheva Shahnoza Shavkat qizi

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ikki tilli muhitda voyaga yetayotgan bolalarning kognitiv rivojlanishi, til o'zlashtirish jarayoni va ijtimoiy - emotsional holati ilmiy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada, bir tomondan, ikki tillilik bolalarning muloqot qobiliyatini, diqqat va tafakkur moslashuvchanligini oshirishi mumkinligi, boshqa tomondan esa, noto'g'ri tashkil etilgan til muhitida psixologik bosim, o'zini ifoda qilishdagi qiyinchiliklar kabi salbiy holatlarga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Tadqiqot natijalari ikki tillilikni psixologik sog'lom muhitda rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: sun'iy va tabiiy bilingvizm, individual va ijtimoiy koordinativ, sub-koordinativ va aralash bilingvizm, assimilyatsiya, akkomodatsiya.

Zamonaviy dunyoda bir qator tadqiqotchilarning fikricha, bolalarning ikki tilliligi sayyoramiz aholisining deyarli yarmini qamrab oladi va bu tendensiya o'sishda davom etadi. Haqiqiy muloqot sharoitida ikki tilli bolalar tilni assimilyatsiya qilish jarayonida spontan nutqning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Agar bolaning o'z fikrlarini ifoda etish va boshqalarning nutqini ikki tilda tushunish qobiliyati ularning jamiyatidagi o'rnini va ro'liga ta'sir qilsa, nutqni rivojlantirish darajasi ikki tilli bolaning o'z -o'zini anglashiga muqarrar ravishda ta'sir qiladi. Ikki tillilikni rivojlantirish jarayoni ilk bolalik davrida kattalar bilan muloqot jarayonida oladigan nutq taassurotlarining xilma -xilligi, chuqurligi va to'g'riligiga bog'liq. O'zaro bog'liq bo'lmagan ikki tilni egallash jarayonida bolalar nutqining shakllanishi hamda unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim. Bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila oluvchilarni bilingvistlar deb ataymiz va bu atama ko'proq ikki tilli muhitda yashash natijasida shakllangan bilingvizmni ifodalaydi. Adabiyotlarda bilingvizm sun'iy va tabiiy ko'rinishlarga ajratiladi. Jumladan:

- **sun'iy bilingvizm**da inson hayotining ma'lum bosqichiga kelib ikkinchi til qo'shiladi va xuddi ona tilidek o'zlashtiriladi;
- **tabiiy bilingvist** kishi esa erta yoshlaridanoq ikkita tilni birdek o'zlashtirib boradi.

Muhit ta'sirida shakllangan bilingvizm tushunchasi ham ikkiga bo'linishini eslatib o'tish kerak:

Individual bilingvistlar – oilaviy sharoit yoki shaxsiy xohish asosida ikki tillilik bilan ulg'aygan kishilar.

Ijtimoiy bilingvistlar – malakatdagi mavjud vaziyat yoki an'analar ta'sirida ikkita tilni bir xil o'zlashtirgan kishilar.

Individual bilingvistlar ota-ona ikki xil tilda gaplashadigan oilada ulg'ayish natijasida har ikki tilni birdek o'zlashtiradi. Bunda ota-ona ikki millat egasi bo'lishi shart emas. Biror chet tilini mukammal bilgan insonlar bimalol farzandlarini ikki tilli qilib tarbiyalay olishi mumkin.

Ijtimoiy bilingvizm esa mamlakatda birdan ortiq davlat tili mavjud, tarixan biror davlatning mustamlakasi yoki vassali bo'lgan jamiyatlarda shakllanadi. Asosan, Yevropa davlatlari orasida bu hol ko'proq kuzatiladi. Masalan, Shvetesariyada 4 ta rasmiy davlat tili mavjud bo'lib, bunday sharoitda insonlar kamida ikkita tilni birdek o'zlashtiradi.

Ikkita tilni inson qay darajada o'zlashtirishiga ko'ra bilingvizm o'z ichida yana 3 turga bo'linadi:

Koordinativ yoki muvozanatlashgan bilingvizm. Bunda inson ikki tilni alohida kontekstda o'zlashtiradi. Bunday odamlar miyasida ikkala til uchun alohida so'z boyligi, alohida grammatik tushunchalar shakllangan bo'ladi. So'zlashganda ikki tilning tushunchalari bir-biri bilan aralashib ketmaydi.

Sub-koordinativ yoki muvoznatlashmagan bilingvizm. Bunda birinchi til ikkinchisiga qaraganda ustunlikka ega bo'ladi. Ya'ni ikkinchi til ona tili orqali o'zlashtirilgan bo'ladi. Masalan, ikkinchi tilda biror so'zni eshitganda shu so'zning ona tilidagi ekvivalenti birdan xayolga keladi.

Aralash bilingvizm. Bunday bilingvistlar ikki tilni bir kontekst ichida tushunib, qo'llab keta oladi. Bunday kishilarning miyasi qaysi tildan foydalanayotgani haqida o'ziga hisob berib o'tirmaydi. Odatda aralash bilingvizm oilada, ikki tilda so'zlashuvchi ota-ona sababli go'daklik paytidayoq rivojlanadi.

Jean Piagening qarashlariga ko'ra, bolaning atrof-muhitga moslashishi, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayoni, asimilaytsiya va akkomodatsiya bosqichlardan iborat. J.Piagening nazariy yondashuvlariga ko'ra, til tafakkurga bo'ysunadi. Ya'ni bola biror narsa haqida gapirishdan olding uning nimaligini, kognitiv jihatdan tushunib yetishi kerak. Jumladan:

Kognitiv ustuvorlik: J.Piagening fikricha, til kognitiv rivojlanishning mahsulidir. Agar bola ikki tilda bimalol gapirsa, bu uning aqliy rivojlanish bosqichlari bilan parallel kechadi. Bilingvizm aqliy rivojlanishga zarar keltirmaydi, balki bolaning rivojlanish salohiyatini oshirishga yordam berishi mumkin.

Egosentrik nutq: J.Piage bolalarning erta yoshdagi nutqini "egosentrik" deb atagan. Ikki tildildeiradigan bolalarda ham bu holat kuzatiladi – ular dastlab sherigining qaysi tilni tushunishini hisobga olmagan holda, o'zlari o'rgangan so'zlardan foydalanishadi.

Billingvizm ta'siri: J.Piage nazariyasiga tayanib qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ikkitillilik bolaning kognitiv bosqichlardan o'tish tezligini o'zgartirmaydi, lekin unga "moslanuvchanlik" qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Lev Vigotskiyning nazariy qarashlari J.Piagenikidan ancha farq qiladi. Chunki J.Piage "Tafakkur tildan oldin keladi" degan bo'lsa, L.Vigotskiy "Til tafakkurni shakllantiradi" degan g'oyani ilgari surgan. Uning ijtimoiy – madaniy tadqiqotlari ikkitillilikni o'rganishda juda muhim o'rin tutadi. L.Vigotskiyning yuqoridagi nazariy qarashlariga ko'ra:

Til – asosiy quroldir. L.Vigotskiy uchun til shunchaki fikrni ifodalash vositasi emas, balki intellektni rivojlantiruvchi asosiy "psixologik qurol" dir. Ikkinchi tilni o'rganish bolaning aqliy dunyoqarashini yanada boyitadi.

Yaqin rivojlanish zonasi. Bola tilni ijtimoiy muloqot jarayonida, o'zidan ko'ra bilimliror tengdoshlari yordamida o'rganishi va qiziqishi oshadi. Billingvizm bu – comfort zonani kengaytiradi, chunki bola ikki xil madaniy va lingvistik muhitda harakat qiladi.

Ichki nutq. Tashqi muloqot vaqti kelib "ichki nutqqa" aylanadi. Ikkitilli bolalarda bu jarayon murakkabroq va qiziqroq kechadi – ular qaysi tilda fikrlashini vaziyatga qarab tanlaydi.

Yuqorida o'rganilgan nazariyalar va izlanishlar, ikki tillilik zamonaviy jamiyatda keng tarqalgan hodisa bo'lib, u bolalarning psixologik rivojlanishiga sezilari ta'sir ko'rsatadi. Biroq ikki tillilik har doim ham faqat ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. Erta yoshda tillarning aralashuvi, tilni noto'g'ri o'zlashtirish, shaxsiy identifikatsiya bilan bog'liq muammolarning kuzatilishi mumkin. Qisqasi, bu ta'sirlarning ijobiy yoki salbiy yo'nalishda shakllanishi ko'p jihatdan ota-onalar, o'qituvchilar, ularnin saviyasi, atrof-muhitdagi yondashuvlar va til o'rganish jarayonining sifatiga ham bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Лабиринт, 1999. – 32 с.
2. J.Piage J. The Language and Thought of the child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1923
3. Barac R., Bialystok E. Bilingual Effects on Cognitive Development // Early Childhood Research Quarterly. – 2011. – Vol.26, Issue 4. – P. 412 – 422
4. Tagaymuratovna, Polvanova Dilrabo. "The eclectic approach in language teaching." *Вопросы науки и образования* 10 (22) (2018): 180-182.
5. Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish zaruriyati. Republican scientific and practical conference "introduction of socio-emotional education methods in general secondary educational institutions: problems and solutions", September 16, 2025. 170-173 betlar. <https://zenodo.org/records/17170824>. [electron manzil: [https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00117/117_i_20250921_195137_1%20\(49\).pdf](https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00117/117_i_20250921_195137_1%20(49).pdf)]
6. Simply Psychology. J.Piage's Theory and Stages of Cognitive Development